



NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA LOGORITMIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

¹Normatova Maftuna Kengash qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi
maftunanormatova907@gmail.com,

²Shodiyeva Iroda

Logopediya yo'nalishi 1 bosqich talabasi.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7427387>

ARTICLE INFO

Received: 30th November 2022

Accepted: 10th December 2022

Online: 12nd December 2022

KEY WORDS

Ontogenetik rivojlanish, o'ziga xos jins va yosh xususiyatlari, afaziya, rinolaliya, kognitiv, kognitiv va affektiv jabhalar, genetik, ijtimoiy va shaxsiy omillar, diagnostikasi va korreksiyasi jarayonlari, fonetik, leksik va grammatik vositalar.

Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, va ularni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning II-bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarni shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi. Bolaning ilk rivojlanish davridan boshlab va

ABSTRACT

Maqolada nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini o'rganish. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda bolalarda mustaqil nutqni rivojlantirish usullarini, logoped, logoritmik, tarbiyachi va ota-onalar bilan suhbat o'tkazish. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda bolalarda mustaqil nutqni tekshirish. Bolalarni mustaqil nutqini rivojlantirishni takomillashtirish hamda tasniflash haqida bayon etilgan.

homiladorlik davridan onaga g'amxo'rlik qilish keyinchalik bolalarda uchrab turadigan nutq kamchiliklarini oldini olishga imkon beradi. Bola nutqidagi kamchiliklar o'zgarar nutqini tushinishdagi qiyinchilik ularni atrofdagilar bilan muloqatda bo'lishi o'z tengqurlariga qo'shib ketishini qiyinlashtiradi. Nutq tafakkur ko'ra olish bo'lganligi sababli bola ulg'aygan sari atrof muhitdagi tasavvurlari shakllanadi va uni aks ettirish so'z lug'ati orqali takomillashib boradi. Nutqning rivojlanishda ta'lim-tarbiya ijtimoiy hamda biologik omillarning ta'siri ham kattadir. Buyuk mutaffakirlarimiz Yusuf Xos Hojib odob, axloq ta'lim tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini qomusiy asari –"Qutadg'u-bilig" asarida bilim zakovat soxibi bo'lishining asosiy kalitini til bayon qiladi. Til tufayli kishi o'z bilimi, aql



idrokini, zakotovini til, so'z orqali bildiradi degan fikrlarini uqtiradilar.

Ta'lim beruvchi vazifaning amalga oshirilishi harakati, malakasi va ko'nikmasining shakllanishiga, makon tasavvurlari hamda qobiliyatni ixtiyoriy ravishda borliqda boshqa odamlar va predmetlarga nisbatan siljish, epchillik, kuch, chidamlilik, bir harakatdan boshqasiga o'tish, harakatlarning uyg'unlashuvi, tashkilotchilik qobiliyatining rivojlanishiga imkon beradi.

Ta'limiy vazifalarni amalga oshirishda nutqiy patologiyasi bo'lgan odamlar metroritmika, musiqiy madaniyat, musiqiy idrok va ta'sirchanlik soqasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar. Tarbiyaviy vazifalarni qal qilish nutqiy patologiyasi bo'lgan odamlarda aqliy, ma'naviy, estetik va meqnat tarbiyasida yordam ko'rsatadi. Tarbiyaviy vazifalarni hal qilish aynan quyidagilarga ko'maklashadi:

- ohangni sezish, musiqada, harakatda va nutqda ohang ta'sirchanligini his qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- musiqiy obrazlar va malakani ushbu obraz bilan mos ravishda ohangli, ta'sirchan harakatlantira olish qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni yangicha shakl olishni uddalash, badiiy-ijodiy qobiliyatni ko'rsata olish;
- ijobiy shaxsiy sifatlar, jamoatchilik tuyqusi, turli faoliyat turlarining qoidalarini o'rganish va boshqalarni tarbiyalash.

Mashg'ulotlarning korreksion yo'nalishi nutqiy buzilishlar mexanizmi va tuzilmalarini, logopedik ishning bosqichliligi va majmuaviyligini qisobga olishni shart qilib qo'yadi. Logoped bolaning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini, uning harakat tizimi qolatini, nutqiy va nutqiy bo'lmagan jarayonlarning buzilish

xarakteri va darajasini: praksis, gnozis jarayoni, eshitish va ko'rish idroki, diqqati, xotirasi va boshqalarni inobatga oladi. Bu barcha topshiriqlar maxsus muassasa turiga bog'liq: nutqiy bolalar bog'chasi; ommaviy bolalar bog'chalardagi nutqiy guruhlar, maxsus maktab; ommaviy umumta'lim maktablaridagi logopedik shahobchalar; bolalar va kattalar poliklinikalarida, psixonevrologik dispanserlardagi logopedik kabinetlar; statsionar, yarimstatsionar, sanatoriyalar. Logopedik ritmikaning dastlabki tushunchasi so'z, musiqa va harakatning uyg'unlashuviga asoslangan. Ko'rsatilgan komponentlarning o'zaro munosabati ulardan birining yoki ular orasidagi aloqaning ustunligi bilan turli-tuman bo'lishi mumkin.

Logopedik ritmikaning ikkinchi tushunchasi uning istalgan reabilitatsion uslubiga tarbiya, ta'lim va turlicha manolarni rivojlanish hamda nutq buzilishi bo'lgan odamlarni davolashni kiritishni shart qilib qo'yadi. Logopedik ritmika o'quv fani sifatida talabalarning bilimni korreksion ishlar uslubi bilan boyitadi.

O'z xarakteri bo'yicha logoritmik mashqlar (ertalabki harakatli nafas-ovozli zaryadka, relaksatsiya mashqlari, unli tovushlar va qisqa qo'shiqlarni kuylash, harakat va nutq ritmining uyg'unligiga mashqlar va q.k.) bolalar va kattalarni belgilangan sog'lomlashtiruvchi tartibga o'rgatadi. Muntazam ravishda olib borilgan logoritmik mashg'ulotlar ta'siri ostida organizmda va psixomotorikada turli tizimlarning ijobiy qayta qurilishi sodir bo'ladi, masalan, yurak-qon tomir, nafas olish, harakatlanish, nutqiy harakatlanish, sensor va boshqalar.

Logoritmik korreksiya ishlab chiqilgan harakatlanish malakalarini takrorlab



turishni talab qiladi. Faqatgina sistematik ravishda ko'p marotaba takrorlash orqaligina sog'lom harakatlanishning dinamik stereotiplari yuzaga keladi. Samarali takrorlash uchun o'zlashtirilganlarni takrorlash jarayoni variativ xarakter olishi: mashqlarni, bajarish shartlarini, usullarning turli-tumanligi, mashqulotlarning mazmunidagi farqlarni o'zgartirish uchun yangilari bilan uyg'unlashtirish zarur. Mashqlarning variativligi mo'ljalli-tadqiqot refleksini, qiziqish, qissiyotni uyqotadi, e'tiborni oshiradi. Ishlab chiqilgan dinamik stereotipga yangi qo'zqatuvchilarni kiritish asta-sekinlikka amal qilish sharti bilan, shiddatli o'zgarishlarsiz amalga oshirilishi darkor.

Bolaning mustaqil, faol harakati berilgan topshiriqning unda qiziqish uyg'otishiga,

uning ongli idrokiga, maqsadni tushunishi va bajarish qobiliyatiga bog'liqdir. Logoritmik mashg'ulotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning faolligi logopedning hissiyotchanligi, musiqaning obrazlilik, turlicha o'yinlar yoki o'yin usullari va mashqlari bilan rag'batlantiriladi. Maktab va undan katta yoshda esa, bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri yo'riqnoma (buyruq, musobaqa elementlari, mukofotlash va q.k.) lardan foydalaniladi. So'z va musiqa bilan uyg'unlikda harakatlarning shakllanishi, ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish barcha retseptorlar: ko'rish, eshitish organlari vestibulyar, propriotseptiv, harakatlanish apparatlari va boshqalar ko'rsatkichi bilan amalga oshiriladi.

References:

1. Lex.uz/.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. Ayupova.M.Y. —Logopediya O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatlashriyoti Toshkent - 2007.
3. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasil Ma'ruza matni .T-2001
4. Mo'minova L.R., Shomaxmudova R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. Toshkent-Turon-iqbol-2007
5. Normatova, M. (2021). THE IMPORTANCE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES TO CORRECT THE SPEECH OF PRESCHOOLERS. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/714>
6. Normatova, M. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda va korreksiyalashda logopedik yondoshuvlar. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5111>
7. M.Normatova. (2021) Maktabgacha ta'lim muassasasi o'qituvchi logopedining o'quv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi. SCIENTIFIC PROGRESS ISSUE 2